

MAHKUMLAR IJTIMOIYLASHUVINING IJTIMOIIY, IQTISODIY VA HUQUQIY JIHATLARI

Ortikova Nasibaxon Yusubjonovna

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

artikovanasibaxon07@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu ilmiy maqolada mahkumlarning jamiyatga qayta integratsiyalashuvi, ya'ni ularning ijtimoiylashuvi jarayonining ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy jihatlari kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi jinoyat-ijroiya tizimi qonunchiligi, mavjud amaliy tajribasi, xalqaro standartlar bilan solishtirilib tahlil qilinadi. Ayniqsa, Germaniya, Norvegiya, AQSh, Rossiya kabi davlatlarning penitensiar muassasalardagi rehabilitatsiya yondashuvlari o'rganilgan hamda O'zbekiston sharoitiga mos taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mahkum, ijtimoiylashuv, penitensiar muassasa, rehabilitatsiya, huquqiy himoya, iqtisodiy moslashuv, jamiyatga integratsiya, xalqaro tajriba.

KIRISH

Bugungi kunda jinoyatchilikning oldini olish, jazoni ijro etish tizimining insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda faoliyat yuritishi, jazoni o'tab bo'lgan shaxslarning jamiyatga qaytishi bilan bog'liq masalalar global miqyosda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Zero, mahkumlarning jamiyatga qayta integratsiyalashuvi, ularning ijtimoiy munosabatlarga to'laqonli qo'shilishi nafaqat shaxsning, balki butun jamiyatning ijtimoiy barqarorligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. 2023-yil noyabr holatiga ko'ra dunyo bo'ylab taxminan 4000 qamoqxona mavjud bo'lib, qamoqda saqlanayotgan mahkumlar soni 11,5 milliondan ortiq. Qamoqxonalar aholisining asosiy qismini erkakalar tashkil etadi va 120 ga yaqin mamlakatda qamoqxona tizimining imkoniyatlaridan yuqori bo'lgan bandlik darajasi qayd etilgan, bunda muayyan qamoqxonalarning infratuzilmalari cheklangan miqdordagi mahkumlarga mo'ljallangan bo'lsa-da, ushbu muassasalardagi real mahkumlar sonining me'yordan birmuncha ko'p ekanligi nazarda tutiladi. Dunyo

miqyosida 740,000 dan ortiq ayollar va qizlar qamoqda bo'lib, ushbu ko'rsatkichlar faol ravishda ko'payishda davom etmoqda.

Ayollar va qizlar hozirgi kunga kelib global qamoqxona aholisining atigi 7 foizini tashkil etsa-da, ularning soni erkaklarga qaraganda tezroq o'sishni ko'rsatmoqda. 2023-yilning oxiridagi statistikada jazoni ijro etish muassasalaridagi ayollar soni 2000-yildan buyon 60 foizga oshganligi va bu ko'rsatkich erkaklarda 22% ni tashkil etishi qayd etilgan¹.

Ijtimoiylashuv — bu shaxsning ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar va jamiyat talablariga muvofiq tarzda shakllanishi jarayonidir. Mahkumlar uchun bu jarayon ikki barobar murakkab kechadi, chunki ular ozodlikdan mahrumlik holatida bo'lib, ijtimoiy aloqalardan uzilgan, mehnat va ta'lim faoliyatidan chetlatilgan bo'ladi. Shuning uchun jazoni o'tab bo'lgan shaxslarning jamiyatga ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy jihatdan moslashuvi uchun samarali mexanizmlarni ishlab chiqish bugungi islohotlarning ajralmas tarkibiy qismiga aylangan.

Maqolada ushbu jarayonning nazariy-huquqiy asoslari, O'zbekistonda va xorijda mavjud amaliy tajribalar, davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, diplom ishida olib borilgan tahlillar asosida ilgari surilgan taklif va tavsiyalar maqola davomida bayon qilinadi.

Mahkumlarning jamiyatga moslashuvi jarayonida eng muhim omillardan biri bu ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimidir. Oilaning mavjudligi, yaqinlar bilan aloqa, do'stlar va mahalla institutlari tomonidan bildirilgan e'tibor, psixologik yordam ijtimoiy integratsiyaga xizmat qiladi. O'zbekistonda so'nggi yillarda mahkumlarni ijtimoiylashuviga doir ishlar kuchaytirilib, ta'lim olish imkoniyatlari, ruhiy salomatlik markazlari, diniy-ma'naviy tarbiya faoliyati kengaymoqda.

Iqtisodiy moslashuv va bandlik masalalari Mahkumlar jazoni o'tab chiqqach, ish topishda qiynaladi. Bu esa ularning qayta jinoyat sodir etish ehtimolini oshiradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mahkumlarni mehnatga jalb qilish, kasb-hunarga o'qitish,

¹ <https://www.penalreform.org/global-prison-trends-2023>

bandlik markazlari orqali qo'llab-quvvatlash ularning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlaydi. Germaniya tajribasida mahkumlar qamoqda bo'lgan paytda ham ishlab, ozodlikka chiqqach, mehnatga tayyor holatda bo'ladi.

Huquqiy himoya va qonunchilik asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Jinoyat-ijroiya kodeksi va boshqa qonun hujjatlarida mahkumlarning huquqlari belgilab qo'yilgan. Masalan, Jinoyat-ijroiya kodeksining 172-moddasiga asosan jazoni o'tab bo'lganidan so'ng moliyaviy majburiyatlar sud tomonidan kechiktirilgan yoki bo'lib-bo'lib to'lash shaklida belgilanadi. Shuningdek, mahkumlarning advokat bilan ta'minlanishi, ularning ariza va shikoyatlari ko'rib chiqilishi huquqiy himoya mexanizmlari sifatida qaraladi.

Xorij tajribasini ko'rib chiqadigan bo'lsak, **Gruziya**dagi yangi loyiha ushbu jarayon uchun standartni belgilashni maqsad qilgan. Loyiha 2017-yil yanvar oyida Gruziya axborot va maslahat markazi (TANADGOM) bilan hamkorlikda boshlangan.

Loyihaning uchta aniq maqsadi bor: mahkumlarni psixo-ijtimoiy va tibbiy rehabilitatsiya qilish, giyohvandlikka qaram bo'lgan bo'lgan mahkumlarga psixo-ijtimoiy rehabilitatsiya va terapevtik yordam ko'rsatish, shuningdek, mahkumlar uchun yaxshilangan o'tish davri boshqaruvi bo'yicha targ'ibot qilish.

Mainline tashkilotining loyihaga qo'shgan hissasi uchinchi maqsadga qaratilgan bo'lib, ular Yevropa va Niderlandiyadagi "o'tish davri boshqaruvi" bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rganib chiqdilar².

Kanadadagi mahkumlarning ijtimoiylashuvi va qayta integratsiyasi uchun ijtimoiy xizmatlar va psixologik qo'llab-quvvatlash tizimi keng rivojlangan. Mahkumlar o'z jinoyatlarini tan olishlari, jamiyatga qaytganidan keyin jinoyatni takrorlamasliklari uchun ta'lim va kasbiy tayyorgarlik dasturlariga jalb qilinadi. Kanada shuningdek, mahkumlarning huquqlarini himoya qilish, ularga moslashuv va yordam berish tizimini yaratishda jahon miqyosida muvaffaqiyatli amaliyotlarga ega³.

² <https://mainline.nl/en/projects/life-after-prison/>

³ [GL 726-2 National Correctional Programs Referral Guidelines](#)

Mahkumlarning jamiyatga qayta integratsiyalashuvi jarayoni murakkab ijtimoiy-psixologik, huquqiy va iqtisodiy muammolar bilan to'qnash keladi. Birinchi muammo — bu jamiyatdagi salbiy stereotiplar bo'lib, ko'plab fuqarolar jazoni o'tab chiqqan shaxslarga nisbatan ishonchsizlik va rad etish munosabatini bildiradilar, natijada sobiq mahkumlar ishga joylashishda, turar joy topishda va ijtimoiy hayotga qo'shilishda qiyinchiliklarga duch keladi. Jamoatchilik o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, so'rovnomada qatnashgan o'n to'rt kishining barchasi mahkumlarga ishonchsizlik bilan qaralishi haqidagi fikrni ilgari surishgan.

Bu esa ularning o'zini jamiyatdan chetlashtirilgan deb his qilishiga, ijtimoiy norozilik va qayta jinoyat sodir etish xavfining ortishiga olib keladi. Ikkinchi muammo — bu sobiq mahkumlarning o'zlarida ijtimoiy hayotga tayyorgarlikning yetarli emasligi, ya'ni kasb-hunar ko'nikmalari, ta'lim darajasi pastligi, ijtimoiy moslashuv strategiyalarining yo'qligi bilan bog'liq. Uchinchi muammo — bu davlat tomonidan taqdim etiladigan ijtimoiy yordam, maslahat va reabilitatsiya xizmatlarining yetarli darajada faol ishlamasligi yoki mavjud tizimlarning samaradorligining pastligi bilan bog'liqdir. To'rtinchi muammo esa mahkumlarning oilaviy va yaqin ijtimoiy aloqalarining uzilishi yoki zaiflashuvi natijasida ularning jamiyatga qaytishida ruhiy va emotsional qo'llab-quvvatlovdan mahrum bo'lishidir. Shuningdek, iqtisodiy muammolar, jumladan, ish topishdagi to'siqlar, mehnat bozorida raqobatbardoshlikning yo'qligi, huquqiy hujjatlar bilan bog'liq byurokratik to'siqlar ham sobiq mahkumlar uchun jiddiy muammo hisoblanadi. Bu omillar ularning jamiyatda munosib o'rin egallashini qiyinlashtirib, qayta ijtimoiylashuv jarayonini sekinlashtiradi yoki izdan chiqaradi.

Integratsiyalashuvdagi muammolarni bartaraf etish uchun davlat, fuqarolik jamiyati va xususiy sektorning o'zaro hamkorligi muhim bo'lib, aynan ijtimoiy xizmatlar, ish bilan ta'minlash siyosati, psixologik yordam tizimi va ijtimoiy qarashlarni o'zgartirishga qaratilgan chora-tadbirlar orqali samaradorlikka erishish mumkin

Bu esa mavjud imkoniyatlarning real foydalanuvchiga yetib bormasligiga olib keladi. Bundan tashqari, qamoqxona muhitining o'zi ham mahkumning keyingi ijtimoiylashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ko'p hollarda bu muassasalarda zo'ravonlik, bosim, korrupsiya va insoniylikdan yiroq munosabatlar hukm suradi. Natijada mahkum shaxsiy rivojlanish emas, balki omon qolish, himoyalanih, o'zini yopish kabi mexanizmlarni o'rganadi.

Bunday holatda bo'lgan shaxs jamiyatga chiqqach, yangi ijtimoiy muhitga moslashishda katta qiyinchiliklarga duch keladi. Shu bilan birga, ayrim sobiq mahkumlar o'z jinoyatkor doiralarini tark eta olmasligi, ularga qayta bog'lanishi yoki jinoyatga yana jalb qilinishi ham integratsiyaning izdan chiqishiga sabab bo'ladi. Bu kabi salbiy holatlarning oldini olish uchun jazoni o'tab chiqqan fuqarolarga ish beruvchilarni rag'batlantirish, ular uchun maxsus reabilitatsiya markazlarini ko'paytirish, doimiy psixologik va huquqiy maslahat berish tizimlarini kuchaytirish talab etiladi. Eng asosiysi esa sobiq mahkumlarga nisbatan jamiyatning fikrini o'zgartirish, ularni jinoyatchi emas, balki yangi hayot boshlash istagidagi inson sifatida qabul qilishga yo'naltirilgan targ'ibot ishlarini olib borish zarur. Aks holda, mavjud muammolar ildizi chuqurlashib, jinoyatchilikning takrorlanuvchanligi oshib boraveradi.

Bu muammolarni hal etishning samarali usullaridan biri bu davlat organlari va jamoat tashkilotlari hamkorligidir. Tojikiston Respublikasi Adliya vazirligi jinoiy jazo boshqarmasi va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni nazarda tutuvchi "Tojikistonda mahkumlar va sobiq mahkumlarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarini himoya qilish" loyihasi bu yondashuvga misol bo'la oladi. Ushbu loyiha qamoqxonalarda o'quv kurslarini o'tkazdi va sobiq mahkumlar ozodlikka chiqqandan keyin ta'lim dasturlarini davom ettirdi.

2014-yildan buyon "Inson huquqlari va qonun ustuvorligi byurosi" jamoat tashkiloti mazkur yo'nalishda faoliyat yuritib, sobiq mahkumlar uchun biznes rejalashtirish, shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy tadbirkorlik bo'yicha treninglar o'tkazmoqda. Muvaffaqiyatli loyiha takliflari sobiq mahkumlarga o'z biznesini

boshlash yoki kengaytirishda yordam berish uchun grantlar bilan taqdirlandi. Qariyb o'n yil davomida "Tojikistonda mahkumlar va sobiq mahkumlarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarini himoya qilish" loyihasi doirasida 20 ga yaqin kishi ana shunday grantlardan foydalandi. Sobiq mahkumlarni biznes va ijtimoiy tadbirkorlikka o'rgatish, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash bilan birga, nafaqat o'zini-o'zi ta'minlash, balki boshqalarni ham ish bilan ta'minlash imkonini yaratadi⁴. Bundan tashqari, jazoni o'tab chiqqanlarga mo'ljallangan ijtimoiy yordam dasturlari ko'pincha byurokratik to'siqlar bilan to'la bo'ladi: hujjatlar yig'ish, maxsus ro'yxatdan o'tish, doimiy yashash manzilining yo'qligi kabi omillar ularning yordamga muhtoj bo'lsa-da, undan foydalana olmasligiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, yosh mahkumlar uchun integratsiya jarayoni yanada og'ir kechadi, chunki ularning aksariyatida mehnat tajribasi, kasb-hunar yoki ijtimoiy muloqot ko'nikmalari bo'lmaydi. Shu boisdan ular jamiyatda mustaqil yashashga tayyor emas, bu esa ularni jinoyatkor guruhlariga qayta jalb qilinishiga olib keladi. Oilaning sobiq mahkumni qabul qilmasligi yoki uni qo'llab-quvvatlashdan bosh tortishi ham katta muammo hisoblanadi, chunki jamiyatga qaytish yo'lida eng muhim turtkilardan biri bu yaqinlar ko'magi, psixologik yordam va motivatsiyadir. Bularning barchasi shuni anglatadiki, mahkumlarning integratsiyasi masalasi faqat ularning jazoni tugatgani bilan yakunlanmasligi, balki uzoq muddatli, tizimli ijtimoiy ko'makni talab qiladigan jarayondir. Shu jihatdan davlat tomonidan maxsus monitoring va kuzatuv tizimini yaratish, sobiq mahkumlarning moslashuvini nazorat qilish va kerakli vaqtda yordam ko'rsatish choralari ko'rilishi zarur.

Mahkumlarni kasbiy tayyorlash dasturlarida nafaqat texnik yoki amaliy ko'nikmalar, balki ijtimoiy moslashuvni ta'minlash, psixologik yondashuv ham muhim rol o'ynaydi. O'rgatilgan kasbni amalda qo'llash, mahkumlar o'rtasida ularning o'zgarishga va yangi hayot boshlashga bo'lgan ishonchni yaratadi. Psixologik yordam, ayniqsa, qayta jinoyat sodir etishning oldini olish uchun zarur. Mahkumlar o'zlarini jamiyatdan ajratilgan deb his qilganlari uchun, ularning o'zgarishiga turtki berish va motivatsiya yaratish muhimdir. Bu jarayonda psixologik maslahatlar, guruh

⁴ Reintegration-of-ex-prisoners-into-normal-life-overcoming-barriers-and-successful-experiences. 2024.

terapiyalari va shaxsiy reabilitatsiya dasturlari o'rganilayotgan kasbga qo'shib o'tkazilishi kerak.

Jinoyat ijroiya kodeksining 13-bobi "Ozodlikdan mahrum qilingan shaxslar mehnati"da mahkumlarning kasb-hunar o'rganishlari va ushbu hunarlar va kasblar doirasini yuqorida ta'kidlangan davlatlardagi kabi kengaytirilishini taklif qilamiz. Mahkumlarning mehnatiga haq to'lashda stavkalar oshirilib, mahkumlarning o'z oilalariga ko'proq iqtisodiy tomonlama yordam berishi ularning ongida qayta ijtimoiylashuvga bo'lgan ishonchni oshiradi. Jahon mamlakatlarida ommalashayotgan ma'lum ta'lim va kasb-hunar bo'yicha qisqa, o'rta va uzoq muddatli dasturlarning O'zbekiston penitensiar tizimiga tatbiq etilishi ushbu yo'nalishda juda yuqori natijalarga olib kelishi mumkin. Mahkumlarga zamonaviy kasblarning o'rgatilishi hamda ular hali jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilmasidan oldin davlat bandlikka qarshi kurash ma'muriyati hamda xususiy sektorlar bilan birgalikda ularning kasbiy yo'nalishiga oid bo'lgan mehnat shtatlari topish ustida ish olib borilishi orqali mahkumlarning qayta ijtimoiylashuvida kasb-hunar va mehnatning to'liq imkoniyatlaridan foydalanish mumkin bo'ladi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatni Jinoyat-ijroiya kodeksining 7-moddasida mahkumlarni ma'naviy jihatdan to'g'rilash yo'li sifatida sanab o'tish, "ijtimoiy-madaniy" tadbirlar mahkumlarni ijtimoiylashtirish usuli sifatidagi g'oyaga huquqiy ta'rif berish kerak. Ta'lim dasturlari, badiiy hunarmandchilik loyihalari, madaniy bayramlar, musiqa va ijro tadbirlari, diniy xizmat va marosimlar, yordam guruhlar va maslahat mashg'ulotlari, sport tadbirlari ijtimoiy-madaniy tadbirlarga misol bo'la oladi. Mahkumlarning ushbu faoliyatga jalb etilishi bilan bog'liq xatti-harakatlari ma'naviy tiklanish jarayoni sifatida ko'rib chiqilishi va ular bu vaqt ichida ishlash talabidan ozod qilinishi kerak. Ijtimoiy-madaniy tadbirlarni rejalashtirishda ko'ngillilar jamoalari, jamoat harakatlari va mahbuslarni parvarish qilish bilan shug'ullanadigan xalqaro tashkilotlar bilan tizimli aloqani rejalashtirish kerak.

Mahkumlarning ijtimoiy rehabilitatsiyasi nafaqat shaxsiy, balki oilaviy aloqalarning tiklanishiga ham bog'liqdir, Shu bois, Jinoyat-ijroiya kodeksiga quyidagi modda kiritilishini taklif etamiz:

“Mahkumlarning oilaviy aloqalarini mustahkamlash va qo'llab-quvvatlash maqsadida sud va penitensiar muassasalarda maxsus oilaviy rehabilitatsiya dasturlari joriy etiladi. Ushbu dasturlar doirasida oilaviy psixologik trening, onlayn va oflayn muloqot imkoniyatlari, oilaviy tashriflar va maxsus ‘oilaviy yordam’ protokollari belgilanishi lozim”. Xalqaro tajribada, xususan, Norvegiya va Germaniyada oilaviy qo'llab-quvvatlash tizimi muvaffaqiyatli ishlaydi. Oilaviy aloqalar tiklansa, mahkumlarning qayta ijtimoiylashuvi, ishonch va psixologik holati yaxshilanishi kuzatilgan. Bunday rehabilitatsiya usuli mahkumlarning qayta jinoyat sodir etish ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi.

9-moddaning 11-qismi quyidagicha to'ldirilishini taklif qilamiz:

Jazoni o'tashning so'nggi bosqichida mahkumlar nazorat ostida jamiyatda vaqtinchalik ishga chiqish huquqiga ega. Bu mehnatga tayyorlash, ishga qaytishni osonlashtirish va ijtimoiy moslashuvni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. Mahkum ozodlikdan mahrum etilgan muhitdan asta-sekin jamiyatga qaytishga tayyorlanadi. Ish joyida odamlarga moslashish, ijtimoiy aloqalar o'rnatish va mehnat intizomini tiklash imkoniyati yaratiladi. Bu esa jinoyatga qayta murojaat qilish ehtimolini kamaytiradi, ya'ni retsidiv darajasini tushiradi.

Mahkumlarning ijtimoiylashuvi davlat va jamiyat oldidagi eng dolzarb masalalardan biridir. Ularning jamiyatga to'laqonli qaytishi jinoyatchilikning kamayishiga, ijtimoiy adolatning qaror topishiga xizmat qiladi. Diplom ishida bayon etilgan taklif va amaliy tavsiyalar asosida mahkumlarning ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada kuchaytirish mumkin. Shu orqali ularning insoniy qadr-qimmatini tiklash, ijtimoiy integratsiyani ta'minlash va takroriy jinoyatlarning oldini olish imkoniyatlari kengayadi.

Foydalanilgan manbalar:

1. <https://www.penalreform.org/global-prison-trends-2023>
2. <https://mainline.nl/en/projects/life-after-prison/>
3. [GL 726-2 National Correctional Programs Referral Guidelines](#)
4. Reintegration-of-ex-prisoners-into-normal-life-overcoming-barriers-and-successful-experiences. 2024.
5. Xudoyberganov, T. (2020). *Ijtimoiy rehabilitatsiya: nazariya va amaliyot*. Toshkent: O'zbekiston davlat huquqshunoslik instituti.
6. Mirkhamidov, R. (2019). *Mahkumlarning qayta ijtimoiylashuvi: muammolar va yechimlar*. Toshkent: Ijtimoiy fanlar nashriyoti.
7. Qodirov, A. (2021). *Jinoyat sodir etgan shaxslarning ijtimoiylashuvi va huquqiy himoyasi*. Toshkent: Moliya va iqtisodiyot nashriyoti.
8. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi. (1994). – Toshkent: O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi.
9. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya Kodeksi. (1999). – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.
10. O'zbekiston Respublikasining "Mahkumlar va ularning qayta ijtimoiylashuvi" haqidagi qonuni. (2003). – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
11. O'zbekiston Respublikasining "Inson huquqlari" haqidagi xalqaro majburiyatlari. (2012). – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi.
12. O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy xavfsizlik va rehabilitatsiya to'g'risidagi" qonuni. (2017). – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.